

MUSTAMLAKA DAVRIDA AQSH TIL SIYOSATI

Qudratova Sayyora Ziyadulla qizi

*O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti kichik ilmiy xodimi*
sayyoraqudratova18@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada AQSHning mustamlaka davridagi til holati, ingliz tilining bu davlatga kirib kelishi, yoyilishi hamda mustaqillik davrigacha yuritilgan til siyosati haqida fikr boradi.*

Kalit so'zlar: *til siyosati, lisoniy boshqaruv, ta'lim islohi, o'qish va yozishga qarshi qonunlar, matbuot tili, ish yuritish tili.*

Ko'p tilli mamlakatlarda lisoniy boshqaruv bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi tabiiy, albatta. Bunday lisoniy muammolar jamiyat a'zolarining turli irq, millat, til va madaniyatga egaligi sababli yuzaga keladi. Lisoniy boshqaruv atamasi ilk bor fanga B.Jernud va J.Neustupny tomonidan kiritilgan bo'lib, lisoniy boshqaruv shaxsdan boshlanishi va bu oddiy lisoniy boshqaruv deb atalishi, uyushgan lisoniy boshqaruv esa mikro (oila)dan makro (davlat) darajasigacha bo'lishini tushuntirganlar¹. Bundan ko'rinib turibdiki, lisoniy boshqaruv ijtimoiy hayotdagi lingvistik holatni tartibga solishga qaratilgan til siyosatining ma'lum bir qismi, u bilan bog'liq jarayon ekanligi bilan xarakterlanuvchi tushunchadir. Shu sababli til siyosatida lisoniy boshqaruv alohida ahamiyat kasb etadi.

N.Mahmudovning fikricha, tabiiyki, ko'p millatli davlatlarda, ayniqsa, milliy siyosatga, xususan, uning bevosita tarkibiy qismi bo'lmish til siyosatiga jiddiy ehtiyoj seziladi. Shubhasiz, normal til siyosatisiz milliy masalani, biron-bir darajada bo'lsin, hal qilish mushkul. Shuning uchun kattadir-kichikdir har qanday davlatning o'ziga xos til siyosati mavjud. Til siyosati deganda, davlatda, jamiyatda til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy tartibga solish tizimi, til muammolarini hal qilish bo'yicha mafkuraviy tamoyillar va rasmiy-amaliy tadbirlar majmuyi, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir qilish mexanizmlari nazarda tutiladi². Quyida biz Amerikaning mustamlakachilik davri, mustaqillikka erishuvi hamda global davrdagi mavjud til siyosati va uning bosqichlari xususida fikr yuritamiz.

Amerika mustamlakachilik davri (1607 – 1776). 1492-yilda Amerika qit'asi X.Kolumb tomonidan kashf etilgan so'ng bir qator Yevropa davlatlari bu yerlarni mustamlaka qilishga kirishgan. Bu yerlarda dastlab kishilarning turmush tarzi qabila,

¹ Jernudd B., Neustupny J.V. Language Planning: For whom? // in LaForge (Eds.). Proceedings of the international colloquium on language planning. – Canada: Presses de l'Universite Laval, 1987. – P.69.

² Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. №4. 17-бет.

qabila ittifoqi shaklida bo'lib, muloqot jarayonida bir necha qabilaviy (Algonkian, Iroquoian, Sioux, Messoamerikan, And) tillardan foydalangan. Amerikaning tubjoy aholisi mahalliy hindulardan tashkil topgan. Amerikani mustamlaka qilishni birinchi bo'lib, Yevropa davlatlaridan Ispaniya va Portugaliya boshlagan. Mustamlakachilik tarixi tufayli Amerikaning aksariyat aholisi ispan yoki portugal tillarida muloqot qilgan³. Bu davrda Amerikada bir qancha tillar mavjud bo'lsa-da, ispan va portugal tillari asosiy muloqot vositasi vazifasini bajargan.

Mustamlaka davrida AQShga ingliz tilining kirib kelishi Virjiniya koloniyasining tashkil etilishi bilan bog'liq. Angliyalik mustamlakachilar 1607-yilda Shimoliy Amerikaning Virjiniya shtatiga qarashli Jeymstaunda ilk aholi yashash punktini tashkil qilganlar⁴. Virjiniya shtati ingliz aholisi uchun birinchi yashash punkti vazifasini bajarish bilan birga AQSHning ilk siyosiy yig'inlari o'tkazila boshlagan hudud hisoblanadi. Shu sababli AQSH hukumatining boshlanishi ham shu shtat bilan bo'g'liq holda o'rganiladi.

Mustamlakachilik davrida ta'lim jarayonlari. Amerika til siyosati dastlab amerikan hindularining ta'lim jarayoni bilan bog'liq ekanligi bilan xarakterlanadi. Amerika qit'asida hindu ta'lim tizimida mahalliy amerika tillaridan foydalanish uzoq tarixga ega. Avvalo, bir qancha missionerlar tomonidan sharqiy hindu xalqlari orasida ingliz tili targ'ib etila boshlangan. Ilk bor Roksberi lotin maktabining asoschisi, puritan missioner, "hindularning havoriysi" nomi bilan tanilgan Jon Eliot Amerikaga kelib, 1646-yilda amerika hindulariga o'z tillarida va'z qilgan. 1663-yilda esa hindu tarjimonlari va matbaachilari yordamida Massachuset hindu tilini inglizcha imlo qoidalariga moslashtirgan holda Yangi Ahdni nashr ettirgan⁵. Jon Eliot tomonidan ushbu matnlarni mahalliy hindularga o'qitishni o'rgatish uchun tubjoy amerikaliklar uchun ilk bor maxsus maktablar ham ochilgan. Chunki din qadimdan biror tilni o'rgatish va yoyishda eng asosiy motivlardan biri hisoblangan.

Asta-sekinlik bilan Amerika tomonidan hindu xalqi ta'limiga oid yuzdan ortiq shartnomalar ratifikatsiya qilingan. 1775-yilda Kontinental Kongress Dartmut kollejidagi 10 nafar hindu talabalarining xarajatlarini to'lash uchun mablag' ajratgan. Shuningdek, qabila o'qituvchilari va diniy guruh vakillariga ham maktab ochish uchun sarmoya ajratilib turilgan⁶. Amerikaning hindu ta'limiga mablag' ajratishining asosiy maqsadi hindularni nasroniylashtirish va sivilizatsiya qilish orqali assimillatsiya qilish bo'lgan⁷. Bu bilan Amerika amerikan hindulariga nisbatan madaniy jihatdan ta'sirish,

³ Colonization of the Americas // <https://kids.britannica.com/students/article/colonization-of-the-Americas/272832>

⁴ A Short History of Jamestown // <https://www.nps.gov/jame/learn/historyculture/a-short-history-of-jamestown.htm>

⁵ Szasz M.C. Indian education in the American colonies 1607–1783. – Albuquerque: University of New Mexico, 1988. – P.333.

⁶ Worthington C.F., eds., Journals of the Continental Congress, 1774–1789, Vol. II, 1775. – Washington, 1905. – P.176 – 177.

⁷ Bu haqda qarang: Keeping Forgotten Promises / Annual Report National Advisory Council on Indian Education. – Washington, 1993. – P.24.

ularni o'zlariga yaqinlash hamda ingliz tilini yoyishga qaratilgan yumshoq til siyosatini olib bo'lganligini kuzatish mumkin.

Shuningdek, ko'ptilli mamlakat bo'lgan AQSH ta'lim tizimida nemis tilidan keng foydalanish ham kuzatiladi. Masalan, 1600-yilning oxirlaridan Birinchi jahon urushigacha amerikan nemislariga o'z tilidan foydalanish, nemis tilida matbuot yuritish hamda farzandlariga ta'lim jarayonlarida nemis tili va ikki tilli ta'lim tizimidan foydalanishga erkinlik yaratilgan⁸. Bu davrda Amerika ta'lim tizimida mavjud bo'lgan davlat va xususiy ikki tilli maktablar XX asrning boshlariga qadar faoliyat yuritgan bo'lib, o'sha paytlarda ingliz va nemis tillaridagi ikki tilli ta'lim tizimi boshqa ikki tilli dasturlarga qaraganda kengroq tarqalgan.⁹

Mustamlaka davridan hozirgi kunga qadar AQSHda ispan tili norasmiy ikkinchi til sifatida tan olinadigan ta'lim tili sifatida faol qo'llangan. Masalan, 1749-yilda B.Franklin tomonidan "Pensilvaniyada yoshlarni tarbiyalash bo'yicha takliflar" (XVIII asr imlosi) nomli risola nashr etilgan bo'lib, unda asosan savdogarlar yoki savdo sohasidagi mutaxassislariga ispan tilini o'rgatish haqida fikr yuritilgan.¹⁰ B.Franklinning risolasidan so'ng, 1766-yilda ispan tili birinchi marta AQShning Pensilvaniya universitetida o'qitila boshlangan¹¹. Shuningdek, mustamlaka davrida Virjiniya shtatida ham ispan tilida ta'lim beruvchi institut mavjud bo'lgan.

AQSH janubiy kaloniyalarida qullarning o'qish va yozish malakasini egallashiga qarshi qonunlar. O'qish va yozishni cheklovchi qonunlar dastlab AQShning janubiy shtatlarida qabul qilingan bo'lib, bu qonunlar asosiy maqsadi AQSHdagi afro-amerikan qullarning ozodlikka erishishi va ma'naviy dunyosining shakllanishiga qarshi qaratilgan. AQSHda afrikalik qullarning ommaviy qochish harakatlari natijasida afrikalik qullar va mustamlakachi hukumat o'rtasida Stono qo'zg'oloni yuzaga kelgan. Aynan bu qo'zg'olon natijasida AQShning Janubiy Karolina, Jorjiya, Virjiniya, Missisipi, Shimoliy Karolina, Luiziana va Alabama shtatlarida qullarning o'qish va yozish malakasiga ega bo'lishiga qarshi qonunlar qabul qilingan bo'lib, bu shtatlarda yuritilgan AQShning qat'iy til siyosati mustaqillik davrida ham amal qilgan¹². Amerika shtatlarining yuqoridagi yettitasida ham afro-amerika qullariga nisbatan o'qish va yozish cheklangan bo'lsa ham, bu jarayon shtatlarda turli darajadali bilan farqlangan.

Masalan, Janubiy Karolinada 1740-yilda qullarning o'qish va yozish malakasiga ega bo'lishiga qarshi qonun qabul qilingan. Bu qonun afrikalik va boshqa qullarni

⁸ Kloss H. The American Bilingual Tradition. – Texas: Newbury House, 1977. – 347 p.

⁹ Crawford J. Advocating for English Learners. – Clevedon: Multilingual Matters, 2008. – P.118.

¹⁰ Franklin B. (1749). Proposals relating to the education of youth in Pensilvania. Retrieved from http://sceti.library.upenn.edu/sceti/printedbooksNew/index.cfm?TextID=franklin_youth&PagePosition=1

¹¹ Vilar García M. (2008). El español, segunda lengua en los Estados Unidos. De su enseñanza como idioma ex tranjero en Norteamérica al bilingüismo (3rd Ed.). Universidad de Murcia: Spain.

¹² Tolley K. Slavery and the Origin of Georgia's 1829 Anti-Literacy Act // <https://www.researchgate.net/publication/336279538>

tartibga solish uchun amalga oshirilgan keng qamrovli harakatlardan biri bo'lib, qonunda qullarning shaxsiy qayig'i bo'lishi, otlarni ko'paytirishi va sotishi (bunda asosan qochish vositalari nazarda tutilgan) va nog'ora urishni (Stono qo'zg'olonida nog'ora urish boshqa qullarni qo'zg'olonga chaqirish uchun ishlatilgan) cheklovchi qonun ishlab chiqqan. Shuningdek, ilk bora shtatda o'qish va yozishni o'rgatish ta'qiqlab qo'yilgan va o'qituvchilarga 100 funt sterling miqdorida jarima solingan¹³. O'qish va yozish malakasiga qarshi qonun haqida quyidagicha qarash mavjud bo'lgan: "Yozishga o'rgatilgan qullarning bo'lishi yoki ularni yozuv bilan bo'g'liq ishlarga jalb qilinishi qul egalari katta noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki yozish qobiliyati qullarning qochish maqsadida o'z yo'llanmalarini soxtalashtirishga imkon beradi"¹⁴. Ushbu qonun nafaqat qullarning jismoniy hayoti, shuningdek, ma'naviy dunyosining ham cheklanishiga olib kelgan.

Shuningdek, beshta janubiy shtat – Alabama, Jorjiya, Luiziana va Shimoliy va Janubiy Karolinada har qanday sharoitda ham qul bo'lgan afro-amerikaliklarga o'qish va yozishni o'rgatish ta'qiqlangan. Ulardan uchasi – Alabama, Jorjiya va Janubiy Karolinada qonuniy ravishda erkin bo'lgan afro-amerikaliklarga o'qish va yozishni o'rgatishni taklif qilgan har qanday kishini jazolangan. Oltinchi shtat, Virjiniyada, qullar yoki erkin qora tanlilar uchrashadigan barcha maktablarni noqonuniy yig'ilishlar deb belgilangan va oq tanlilarning qullarga maosh evaziga dars berishi ta'qiqlangan¹⁵. Missisipi shtati qonunida esa oq tanli odamlarga qulga o'qishni o'rgatganligi uchun bir yilgacha qamoq jazosi tayinlangan¹⁶. AQShning janubiy shtatlarida qabul qilingan bu qonunlar ma'lum ma'noda jamiyat a'zolarining ijtimoiy, iqtisodiy holatidan kelib chiqib cheklashga yo'naltirilgan davlat ichki til siyosatining bir ko'rinishi bo'lgan.

Ommaviy axborot vositalari. XVIII – XIX asrlarda Amerika Qo'shma Shtatlari mustamlakalarida golland, shved, nemis tillari keng tarqalgan¹⁷ va ispan va fransuz tillari ham faol qo'llangan¹⁸. Amerikaning bag'rikenglikka yo'naltirilgan til siyosatida lisoniy harxillikni qo'llab-quvvatlash va ozchiliklarning tillarini saqlab qolish alohida ahamiyat kasb etgan. Albatta, mamlakatda bir qancha tillarning amalda qo'llanishi ommaviy axborot vositalarida ham lisoniy rangbaranglikni namoyon etgan. AQSH ommaviy axborot vositalarida ham mahalliy tillarga nisbatan bag'rikenglik

¹³ Monaghan E.J. Reading for the Enslaved, Writing for the Free: Reflections on Liberty and Literacy. – Worcester, MA: American Antiquarian Society, 2000. – P.317.

¹⁴ Cushing D. First Laws of the State of South Carolina, I: 174. (Restrictions against horse ownership had been passed in 1714 and 1722; McCord, Statutes at Large of South Carolina, 7: 368, 382.)

¹⁵ Monaghan E.J. Reading for the Enslaved, Writing for the Free: Reflections on Liberty and Literacy. – Worcester, MA: American Antiquarian Society, 2000. – P.335.

¹⁶ Edward M.D. Extracts from the American Slave Code. – Philadelphia: Philadelphia Female Anti-Slavery Society, 1845. – P.2.

¹⁷ Zentella A.C. The Hispanophobia of the Official English movement in the US // International Journal of the Sociology of Language, 1997. – P.127.

¹⁸ May S. Misconceiving Minority Language Rights: Implications for Liberal Political Theory // Language Rights and Political Theory. – Oxford: Oxford University Press. 2003. – 123 – 152 p.

siyosati yuritilgan. Xususan, Amerika bo'ylab ko'p tillarda haftalik gazetalar nashr etilgan. Masalan, AQSHda asosiy gazetalar ingliz tilida yuritilsa-da, 1618-yilda Amsterdamda golland tilidagi ilk haftalik gazetalar nashr etila boshlangan¹⁹.

Ish yuritish. Mustamlaka davrida ish yuritishda asosan ingliz tilida yuritilgan bo'lsa-da, ayrim shtatlarda fransuz, ispan, niderland va nemis tillarida mahalliy qonunlar chop etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Amerikada ingliz tili rasmiy maqomga ega bo'lmasa ham, qonunchilik, ommaviy axborot vositalarida faol qo'llanishi dominant til mavqeyini belgilab bergan. Amerikada lisoniy harxillik mavjud bo'lsa-da, ma'lum ma'noda rasmiy doiralar, ish yuritish jarayonlarida immigrantlar tilini cheklashga qaratilgan siyosat ham yuritilgan. Bundan maqsad Amerikada ingliz tilining dominantlik maqomini saqlab qolish bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A Short History of Jamestown // <https://www.nps.gov/jame/learn/historyculture/a-short-history-of-jamestown.htm>
2. Edward M.D. Extracts from the American Slave Code. – Philadelphia: Philadelphia Female Anti-Slavery Society, 1845. – P.2.
3. Franklin, B. (1749). Proposals relating to the education of youth in Pensilvania. Retrieved from http://sceti.library.upenn.edu/sceti/printedbooksNew/index.cfm?TextID=franklin_youth&PagePosition=1
4. Jernudd B., Neustupny J.V. Language Planning: For whom? // in LaForge (Eds.). Proceedings of the international colloquium on language planning. – Canada: Presses de l'Universite Laval, 1987. – P.69.
5. Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. №4. 17-бет.
6. May S. Misconceiving Minority Language Rights: Implications for Liberal Political Theory // Language Rights and Political Theory. – Oxford: Oxford University Press. 2003. – 123 – 152 p.
7. Monaghan E.J. Reading for the Enslaved, Writing for the Free: Reflections on Liberty and Literacy. – Worcester, MA: American Antiquarian Society, 2000. – P.335.
8. Szasz M.C. Indian education in the American colonies 1607–1783. – Albuquerque: University of New Mexico, 1988. – P.333.
9. Worthington C.F., eds., Journals of the Continental Congress, 1774–1789, Vol. II, 1775. – Washington, 1905. – P.176 – 177.

¹⁹ Courante uyt Italien, Duytslandt, &c. // https://en.wikipedia.org/wiki/Courante_uyt_Italien,_Duytslandt,_%26c.

10. Keeping Forgotten Promises / Annual Report National Advisory Council on Indian Education. – Washington, 1993. – P.24.
11. Kloss H. The American Bilingual Tradition. – Texas: Newbury House, 1977. – 347 p.
12. Crawford J. Advocating for English Learners. – Clevedon: Multilingual Matters, 2008. – P.118.
13. Colonization of the Americas // <https://kids.britannica.com/students/article/colonization-of-the-Americas/272832>
14. Courante uyt Italien, Duytslandt, &c. // https://en.wikipedia.org/wiki/Courante_uyt_Italien,_Duytslandt,_%26c
15. Cushing D. First Laws of the State of South Carolina, I: 174. (Restrictions against horse ownership had been passed in 1714 and 1722; McCord, Statutes at Large of South Carolina, 7: 368, 382.) Tolley K. Slavery and the Origin of Georgia's 1829 Anti-Literacy Act // <https://www.researchgate.net/publication/336279538>
16. Vilar García M. (2008). El español, segunda lengua en los Estados Unidos. De su enseñanza como idioma ex tranjero en Norteamérica al bilingüismo (3rd Ed.). Universidad de Murcia: Spain.
17. Zentella A.C. The Hispanophobia of the Official English movement in the US // International Journal of the Sociology of Language, 1997. – P.127.